



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI



BUXORO
DAVLAT
UNIVERSITETI
1930



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
INNOVATSION RIVOJLANISH
VAZIRLIGI

**“БАШАРИЯТ МАЪНАВИЙ ЮКСАЛИШИ ВА
ЁШЛАР ТАРБИЯСИДА АЛИШЕР НАВОИЙ
МЕРОСИНING АҲАМИЯТИ”**

мавзусидаги республика онлайн

илмий-амалий анжумани

МАТЕРИАЛЛАРИ



*Alisher
Navoiy*

580

**5 февраль 2021 йил
Бухоро**



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА
МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

**БАШАРИЯТ МАЪНАВИЙ
ЮКСАЛИШИ ВА ЁШЛАР
ТАРБИЯСИДА АЛИШЕР НАВОИЙ
МЕРОСИНИНГ АҲАМИЯТИ**

мавзуидаги республика онлайн илмий-амалий конференция

МАТЕРИАЛЛАРИ

2021 йил 5 февраль. Бухоро

Тўпладан республика онлайн илмий-амалий конференция материаллари ўрин олган. Мақолаларда Алишер Навоий ижодининг турли қирралари, уни ўрганиш масалаларига доир илмий кузатишлар жамланган бўлиб, мазкур соҳага оид барча мутахассисларга мўлжалланган.

Тўплаб нашрга тайёрловчилар:
Р.Ражабова, Н.Қодирова, Н.Ўроқова

Тақризчилар:
Ф.ф.д. Л.Шарипова, ф.ф.н. Т.Асадов

Мазкур илмий тўплам Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 19 октябрдаги 4865-сонли “Буюк шоир ва мутафаккир Алишер Навоий таваллудининг 580 йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида” ги қарори ижроси доирасида амалга оширилди.

goh u ma'nodan, goh bu ma'nodan, goh har ikkisidan zavqlana oladi. Misralarni qayta-qayta o'qigani sayin, uning ma'no qirralarini teranroq kashf qilib boradi.

Adabiyotlar:

1. Навоий А. Фаройиб ус-сиғар // Навоий А. МАТ. 20 томлик. 3-том. – Т.: Фан, 1988. – 616 б.
2. Навоий асарлари луғати. Тузувчилар: П.Шамсиев, С.Иброҳимов. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973. – 784 б.
3. Қаро кўзим.–Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 768 б.

NAVOIY ILMIIY MEROSI - MILLIY MA'NAVIY YANGILANISHIMIZ POYDEVORI

Turdiyev Bexruz Sobirovich,

BuxDU, “Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari
va huquq ta'limi” kafedrasini izlanuvchisi

Bugun buyuk mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiy merosini keng va atroflicha o'rganish, uning asarlarida ulug'langan gumanistik g'oyalar mohiyatini xalqimiz, ayniqsa, yoshlar qalbi va ongiga singdirish yuzasidan ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Alisher Navoiyning ijodiy faoliyati serqirraligi bilan nafaqat o'zbek mumtoz adabiyoti, balki Sharq va butun dunyo adabiyoti tarixida ham o'z betakror o'rniga ega. Allomaning ilmiy merosi ona tilimizning beqiyosligi hamda buyukligini anglashda muhim ahamiyatga ega. Zero, Navoiyni anglash, uning falsafiy-axloqiy, madaniy-ma'rifiy mushohadalarga boy asarlarini o'qish va tushunish har bir inson uchun ulkan baxtdir.

Zero, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: “Alisher Navoiy bobomizning **“Odamiy ersang, demagil odami, Onikim, yo'q xalq g'amidin g'ami”** degan satrlarida qanchalik chuqur hayotiy hikmat, falsafa bor. Ya'ni, bu dunyoda insonlarning dardu tashvishlarini o'ylab yashash – odamiylikning eng oliy mezonidir, xalqning g'amidan uzoq bo'lgan insonni odam qatoriga qo'shib bo'lmaydi, deb ta'kidlamoqda ulug' bobomiz. Bu o'lmas satrlar bizning bugungi hayotimiz bilan, bizning orzu-intilish va amaliy harakatlarimiz bilan naqadar hamohang ekani odamni hayratga soladi”[1].

Darhaqiqat, Navoiy saroyda yuqori lavozimlarda faoliyat yuritgan paytlarda ham xalqning og'irini yengil qilish dardi bilan yashagan. Avvalo, xalq manfaati, shahar va mamlakat obodonchiligi, ilm-fan va madaniyat ravnaqi, adolat tantanasi uchun xizmat qilgan. Tarixchi Xondamirning yozishicha, Navoiy dehqonchilik ishlarini yo'lga qo'yib, juda yaxshi natijalarga erishgan. O'z mablag'i hisobidan 52 rabot, 20 hovuz, 16 ko'prik, bir qancha to'g'on, ariq, hammom, masjid-madrasalarni qurdirgan. Navoiy ijod ahli vakillariga homiylik qilib, ularning kamol

topishiga o'z hissasini qo'shdi. Bu qilingan ezgu amallarning zamirida, avvalo, xalqparvarlik, gumanizm, jaholatga qarshi ma'rifat, adolatparvarlik fazilatlarini mujassam ekanligidan dalolat beradi.

Shu ma'noda, Alisher Navoiy asarlari jamiki odamzodga mehnat va halollikdan, do'stlik va hamkorlikdan, rostgo'ylik, sofdillik va samimiyligidan muhim hayotiy saboq bermoqda, haromxo'rlik va adolatsizliklarni, o'zaro nizo va qonli to'qnashuvlarni, vayronagarchilikka sabab boladigan urushlarni esa keskin qoralamoqda. Ana shu ma'noda olganda, Alisher Navoiy ta'limoti faqat milliy ahamiyatga ega bo'libgina qolmasdan, umumbashariy qimmatga ham ega. Bu g'oyalarning shakllanish tarixini va ma'naviy dunyosining rivojlanishini kuchli va samarali yoritish bilan bir qatorda, xalqimizning ma'naviy-ruxiy olamini yuksaltirishda Alisher Navoiy bobomizning xizmatlari beqiyosdir. Bu ulug' zotning boy va umrboqiy merosi tugamas bir buloqdir. Bu buloq insoniyatni hozirgi kunda ham ma'naviyat va ma'rifat bilan sug'ormoqda.

Shuning uchun ham juda kuchli g'oyaviy ta'sir kuchiga va so'zning quvvatiga, ya'ni sehriga ega bo'lgan mutafakkir hazrat Navoiy merosidan biz yosh avlodni barkamol, ya'ni komil inson qilib tarbiyalashda, bugungi kunning o'tkir qurollari bo'lgan ma'naviy tahdidlardan himoya qilishda, ularga qarshi kurash usuli bo'lgan g'oyaviy tarbiyada keng ko'lamda foydalanamiz va bu o'zining amaliy ahamiyatiga egadir.

Milliy tiklanishdan milliy yuksalishimiz jarayonida Navoiy ilmiy merosini o'rganishga yangicha dunyoqarash shakllanib bormoqda. Buni biz quyidagi ma'naviy yangilanishlar misolida ko'rishimiz mumkin:

➤ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991 yil 29 yanvardagi "Alisher Navoiyning 550 yilligini nishonlash to'g'risida"gi Farmoni;

➤ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1991 yil 17 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining adabiyot institutiga Alisher Navoiy Nomini berish to'g'risida"gi qarori;

➤ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991 yil 25 sentyabrdagi "Adabiyot, san'at va me'morchilik sohasida Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti berish to'g'risida"gi Farmoni;

➤ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 14 apreldagi "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasini tashkil etish to'g'risida"gi qarori;

➤ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'i hududida Adiblar xiyobonini barpo etish to'g'risida"gi Qarori;

➤ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yilda 6-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy

nomidagi Davlat adabiyot muzeyi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori;

➤ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 19 oktyabrdagi "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi Qarori[2] shular jumlasidandir.

Shuningdek, mamlakatimiz ma'naviy yangilanishlar jarayonida mutafakkir hayot va ijod yo'lini jahon hamjamiyatiga tanitish maqsadida olib borilayotgan strategik islohotlar diqqatga sazovor. Jumladan, 2018 yil 7 mart kuni Samarqand shahridagi Alisher Navoiy nomidagi markaziy istirohat bog'i hududida o'zbek va tojik adabiyotining ikki buyuk mutafakkiri – Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy haykalining o'rnatilishi buning yorqin misolidir.

2018 yil 27 sentyabr Prezident Shavkat Mirziyoyev va Prezident Emomali Rahmon Dushanbe shahrida tashkil etilgan Nizomiddin Alisher Navoiy nomidagi istirohat bog'iga tashrif buyurdi. Mazkur bog' Tojikiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi farmoyishiga muvofiq tashkil etilib, mazkur farmoyish ijrosini ta'minlash maqsadida tojik va o'zbek xalqlarining do'stligi ramzi sifatida bog' markaziga Nuriddin Abdurahmon Jomiy va Nizomiddin Alisher Navoiy haykallarining o'rnatilishi belgilangan edi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashrifi arafasida bog'da buyuk mutafakkir shoirlar haykali o'rnatilib, 2018 yil 27 sentyabr kuni bu yerga davlat va hukumat vakillari, adiblar, yoshlar jam bo'ldi. Shavkat Mirziyoyev va Emomali Rahmon mazkur istirohat bog'i va haykalni tantanali ravishda ochdi. Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy haykali poyiga gullar qo'yilganligi ma'naviy hayotimizdagi muhim voqealardan biriga aylangan edi[3].

Tojikistonda shunday bog' va yodgorlik majmuasi ochilishini bu borada mamlakatimizda qilinayotgan ishlarning mantiqiy davomi deyish mumkin. Ma'lumki, 2018 yil 7 mart kuni Samarqand shahrining Alisher Navoiy nomidagi markaziy istirohat bog'ida Navoiy va Jomiy haykali o'rnatilgan edi. Yana bir e'tiborli jihati, bu park yonidagi ko'cha ham Abdurahmon Jomiy nomi bilan atalgan, Navoiy bog'i boshqa bir fors-tojik shoiri Abu Abdullo Rudakiy maydoni bilan tutashib ketgan. Yana shunday muhim voqealardan biri 2018 yil 22 oktabrda Guliston shahrida Alisher Navoiyning maskanda ulug' shoirimizning sof misdan ishlangan salobatli haykali tantanali ravishda ochilganligi bo'ldi[4].

2019 yil yanvar oyida Navoiy shahrida respublikamizda yagona bo'lgan Alisher Navoiy jamg'armasi tuzildi. Ajdodlarimiz merosini jahonga tanitish, yoshlarimizni buyuk bobolarimiz an'analari ruhida tarbiyalash kabi ulug' maqsadlar uning asosiy faoliyati yo'nalishlaridandir. Xalqaro mavqega ega jamg'arma saytida mavzuga doir eng muhim yangiliklar, ilmiy tadqiqotlar joylashtirib borilishi rejalashtirilgan. Kelgusida Rossiya, Turkiya, Ozarbayjon,

Qozog'iston, Tojikiston, Afg'oniston, Turkmaniston va boshqa davlatlarda jamg'armaning filiallarini ochish ko'zda tutilyapti[5].

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy xalqimizning insonparvarlik g'oyalarini, ma'naviyat va ma'rifatini yuksaltirishda, boshqa xalqlar tomonidan tan olinishida, xalqning ma'naviy olamini boyitish tarixida o'chmas iz qoldirganligi diqqatga sazovor. Alloma tomonidan bizgacha yetib kelgan boy ilmiy-ma'naviy merosdagi hayotbaxsh g'oyalar Yangi O'zbekiston-yangicha dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qilishi shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: “O'zbekiston”, 2016. –B.18.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida”gi 19.10.2020 yildagi PQ-4865-sonli Qarori. // <https://lex.uz/docs/-5054929>
3. Dushanbe shahrida Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy haykali ochildi.//Xalq so'zi, 2018 yil 27 sentyabr, № 200.
4. Shernazarov A. Gulistonda Alisher Navoiyning yangi haykali ochildi. //Xalq so'zi, 2018 yil 23 oktabr, № 219.
5. Eshboyev T. Alisher Navoiy jamg'armasi tuzildi. //Xalq so'zi, 2019 yil 24 yanvar, № 16.

АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИДА ДЕХҚОНЧИЛИККА МУНОСАБАТ ИФОДАСИ

Тўраева Лайло,

Ўзбек тили ва адабиёт кафедраси

ўқитувчиси

Деҳқончилик касби жуда қадимдан эзгу ниятли халқимиз томонидан ардоқлаб келинади. Негаки бу касб – ҳалоллик тимсоли бўлиш билан бирга оилаларнинг даромад манбаи бўлган. Шунингдек ижод аҳли ҳам ушбу касб ва унинг эгаларига чексиз ҳурмат ва эҳтиромда бўлганлар. Жумладан, халқимизнинг ардоқли шоири, буюк мутафаккир ва давлат арбоби бўлган ҳазрат Алишер Навоий ўзининг асарларида деҳқонлар ҳамда уларнинг касблари тўғрисида муносабат билдириб ўтган.

Хусусан, Алишер Навоий ўзининг дидактик-тарбиявий асарларидан бири бўлган “Маҳбубул-қулуб”да инсоний фазилатлар хусусида мушоҳада юритар экан, барча касб ва унинг эгалари тўғрисида атрофлича тўхталди. Асарнинг 31-бобини деҳқонлар зикрига бағишлайди. Бу бежизга эмас. Навоийнинг ўзи ҳам боғлар барпо этгани, минглаб ўлчамдаги ерларда

2-шўъба. АЛИШЕР НАВОЙНИНГ НАСРИЙ МЕРОСИ	
Н.Бекова, Ж.Шаропов «РУҲ УЛ -ҚУДС»ДА ЙИЛ ФАСЛЛАРИ ТАЛҚИНИ.....	145
<i>Gulova Anorgul, Axmadova Farangiz</i> “MAHBUBUL –QULUB” ASARI – ALISHER NAVOIY NASRIY MEROSINING DURDONASI.....	149
<i>Саидова Райхон</i> “НАСОЙИМ УЛ-МУҲАББАТ”ДА МАЛОМАТ ВА МАЛОМАТИЙЛИК.....	152
<i>Sodiqova Dilorom</i> HADISLAR BADIY TALQINIDA NAVOIY VA MISKIN IJODIDAGI UYG`UNLIK.....	156
<i>Sherxon Qorayev</i> ALISHER NAVOIY ADABIY MAJLISLARI.....	160
<i>Ғайрат Муродов</i> ЗАМОНАВИЙ РОМАНДА АЛИШЕР НАВОЙИ СИЙМОСИ.	164
<i>Шавкат Ҳайитов</i> КОМИЛ ЖАМИЯТ ВА КОМИЛ ИНСОН ОРЗУСИ.....	171

3-шўъба. АЛИШЕР НАВОЙНИНГТИЛМИЙ МЕРОСИ ВА ХАЛҚ ОҒЗАКИ ИЖОДИ

<i>Маматкул Жўраев</i> АЛИШЕР НАВОЙИ ҲАҚИДАГИ ХАЛҚ РИВОЯТЛАРИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ ТАРИХИГА ДОИР.....	177
<i>Ўраева Дармоной, Назарова Гулбаҳор</i> НАВОЙИ ҒАЗАЛЛАРИДАГИ МИФОНИМЛАРНИНГ АСЛИЯТ ВА ТАРЖИМАДА БЕРИЛИШИ.....	186
<i>Собит Авезов</i> НАВОЙИ ИЖОДИДА ФОЛЬКЛОР АНЪАНАЛАРИ.....	190
<i>Арипова Халима</i> АЛИШЕР НАВОЙИ И УЗБЕКСКИЕ МАКОМЫ.....	195
<i>Vozorova Lobar</i> ALISHER NAVOIYNING XALQ SAN`ATI VA UNING TURLARIGA DOIR MULOHAZALARI.....	197
<i>Мунис Жўраева</i> НАВОЙНИНГ “ФАРҲОД ВА ШИРИН” ДОСТОНИНИНГ ЎЗБЕК ХАЛҚ ДОСТОНЛАРИГА ТАЪСИРИ.....	201
<i>Rajabova Ra`no</i> ALISHER NAVOIY IJODIDA FOLKLOR AN`ANALARI.....	203
<i>Kamildjanov Muxammadjon Ne`matdjonovich</i> ALISHER NAVOIY ILMIY MEROSIDA KOMIL INSON MAVZUSI.....	206
<i>Rustamova Gavhar</i> ALISHER NAVOIY G`AZALLARIDA DARAXTLAR BILAN BOG`LIQ OBRAZLARNING BADIY IFODASI.....	210
<i>Turdiyev Bexruz Sobirovich</i> NAVOIY ILMIY MEROSI - MILLIY MA`NAVIY YANGILANISHIMIZ YOYDEVORI.....	213
<i>Тўраева Лайло</i> АЛИШЕР НАВОЙИ АСАРЛАРИДА ДЕҲҚОНЧИЛИККА МУНОСАБАТ ИФОДАСИ.....	216
<i>Худайкулова Латифа</i> ФОЛЬКЛОР АСАРЛАРИ СЮЖЕТИДАГИ МОТИВЛАРНИНГ “МАЖОЛИСУН-НАФОИС” ДА АКС ЭТИШИ.....	218
<i>Nikmatova Nigina</i> ALISHER NAVOIY – ILM NOMIYSI.....	221